

**SINTAGMA VA UNING QO'LLANILISHI**

*Adijon davlat chet tillari institut  
Nemis tili yo'nalishi 402.guruh  
talabasi Tursunova Muxlisa  
Ilmiy rahbar: Odinaxon Ismanova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sintagma va uning qo'llanilishi, turlari haqida, qo'llanilish o'rnini va usuli haqida fikr yuritilgan. Ichki va tashqi sintagmalar, aniqlovchi va aniqlanmishlar munosabati haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** sintagma, ichki sintagma, tashqi sintagma, aniqlovchi-aniglanmish, ritmik guruh, sintagmatik munosabat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается синтагма и ее употребление, виды, место и способ употребления. Речь шла о внутренних и внешних синтагмах, о соотношении определяющего и определяемого.

**Ключевые слова:** синтагма, внутренняя синтагма, внешняя синтагма, опознающее-опознаваемое, ритмическая группа, синтагматические отношения.

**Abstract:** This article discusses the syntagma and its use, types, place and method of use. There was talk about internal and external syntagms, the relationship between defining and defined.

**Key words:** syntagma, internal syntagma, external syntagma, identifying-identified, rhythmic group, syntagmatic relationship.

Sintagma so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan hisoblanadi. "Tartiblangan guruh", "to'plam", "qo'shin", yoki "sintaktik element" degan ma'noni anglatadi. Sintagma (yun. syntagma — qandaydir birikkan, birga qo'shilgan narsa) — 1) og'zaki nutq yoki yozilgan matndan tegishli ran doirasida muayyan intonatsionmazmuniy birlik sifatida ajratib olinadigan bo'lak, parcha. Ushbu ma'noda sintagma bir so'zdan, so'zlar guruhidan va bir butun gapdan iborat bo'lishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda Sintagma bilan so'z birikmasini tenglashtirish hollari ham uchraydi. Lekin nutq jarayonini kuzatish sintagma va so'z birikmasi aynan bir narsa emasligini, har doim ham birbiriga teng kelavermasligini ko'rsatadi. Masalan, "Biz, yoshlar, mustaqil vatanimizni sevamiz" gapida 3 ta S. va 2 ta so'z birikmasi mavjud. Minimal intonatsionmazmuniy birlik bo'lgan sintagmalar gapning ritmik guruhlarini tashkil etadi, ya'ni gapda qancha ritmik guruh bo'lsa, shuncha sintagma. bo'ladi. Gapni sintagmalarga bo'luvchi asosiy vositalarga nutq melodikasi, tezligi, maromi, pauza, so'z urg'usi kabilar kiradi. sintagma qismlarining biri (ko'pincha, oxirgisi) bosh urg'u ( mantiqiy urg'u)ga ega bo'ladi va bu qism sintagmaning intonatsion markazini tashkil

qiladi. Sintagmalar uning tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro aloqasiga koʻra (predikativ sintagma, atributiv sintagma, relyativ sintagma, obyektiv sintagma); gapda tutgan oʻrniga koʻra (tugallanma sintagma, boshlanma sintagma); ularning intonatsion zanjirini shakllantirish turiga kura (tugallangan sintagma, tugallanmagan sintagma, kirish sintagma, zidlovchi sintagma, izoxlovchi sintagma.) tavsiflanadi;

Aniqlovchi — aniqlanmish aloqasi bilan bogʻlangan ikki yoki undan ortiq til birliklarining izchilligi; soʻzlar izchilligi (tashqi sintagma) va morfemalar izchilligi (ichki sintagma) oʻzaro farutnadi. Mas, "uycha" birligi ichki sintagma. boʻlib, undagi "uy" — aniqlanmish, "cha" esa aniklovchi qismdir; "kichkina uy" birligi esa tashqi sintagma boʻlib, "uy" — aniqlanmish qism, "kichkina" — aniklovchi qismdir. "Sintagma" terminini ushbu maʼnoda dastlab shveysariyalik olim F.D.Sossyur qoʻllagan. Sintagmatika til birliklarining nutq jarayonida oʻzaro bogʻlangan holda qoʻllanishini tekshiradi. Demak, lisoniy birliklarning - masalan, soʻzlarning nutq faoliyatida ketma-ket kelishi, muayyan tartibda joylashishi sintagmatika sifatida namoyon boʻladi. Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi. qiyoshlang: Men istiqloq tufayli gullab yashnayotgan Vatanning farzandiman, Koʻrinib turibdiki, nutq faoliyatida muayyan "yotiq chiziqqa" joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabat sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol taʼsir qilishi - insonda lisoniy sezgi uygʻotishi bilan ham oʻziga xosdir. SINTAGMA (yun. syntagma — qandaydir birikkan, birga qoʻshilgan narsa) — 1) ogʻzaki nutq yoki yozilgan matndan tegishli ran doirasida muayyan intonatsion mazmuniy birlik sifatida ajratib olinadigan boʻlak, parcha. Ushbu maʼnoda Sintagma bir soʻzdan, soʻzlar guruhidan va bir butun gapdan iborat boʻlishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda Sintagma bilan soʻz birikmasini tenglashtirish hollari ham uchraydi. Lekin nutq jarayonini kuzatish sintagma va soʻz birikmasi aynan bir narsa emasligini, har doim ham bir - biriga teng kelavermasligini koʻrsatadi. Mas, «Biz, yoshlar, mustaqil vatanimizni sevamiz» gapida 3 ta sintagma va 2 ta soʻz birikmasi mavjud. Minimal intonatsionmazmuniy birlik boʻlgan sintagmalar gapning ritmik guruhlarini tashkil etadi, yaʼni gapda qancha ritmik guruh boʻlsa, shuncha sintagma boʻladi. Gapni sintagmalarga boʻluvchi asosiy vositalarga nutq melodikasi, tezligi, maromi, pauza, soʻz urgʻusi kabilar kiradi. Sintagma qismlarining biri (koʻpincha, oxirgisi) bosh urgʻu (mantiqiy urgʻu)ga ega boʻladi va bu qism sintagmaning intonatsion markazini tashkil qiladi. Sintagmalar uning tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro aloqasiga koʻra (predikativ S, atributiv S, relyativ S, obyektiv gapda tutgan oʻrniga koʻra (tugallanma sintagma, boshlanma sintagma), ularning intonatsion zanjirini shakllantirish turiga kura (tugallangan sintagma, tugallanmagan sintagma, kirish sintagma, zidlovchi sintagma, izohlovchi sintagma) tavsiflanadi.

Aniklovchi — aniqlanmish aloqasi bilan bogʻlangan ikki yoki undan ortiq til birliklarining izchilligi; soʻzlar izchilligi (tashqi Sintagma) va morfemalar izchilligi (ichki Sintagma) oʻzaro farqlanadi. Mas, «uycha» birligi ichki Sintagma boʻlib, undagi «uy» — aniqlanmish, «cha» esa aniklovchi qismdir; «kichkina uy» birligi esa tashqi Sintagma boʻlib, «uy» — aniqlanmish qism, «kichkina» — aniklovchi qismdir. «Sintagma» terminini ushbu maʼnoda dastlab shveysariyalik olim F. D. Sossyur qoʻllagan.

Sintagma nutqimizning kichik birligi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tilshunoslik adabiyotlarida bu haqida eʼlon qilingan tadqiqot ishlari anchagina. Biroq shuni ham aytish kerakki, olimlar oʻrtasida uning lingvistik maqomi haqida bildirilgan fikr mulohazalar mushtarak emas. Baʼzilar uni fonetik hodisa deb taʼriflasalar, boshqalari bu oʻrinda grammatik (sintaktik) hodisani koʻradilar. Quyida ana shu masala haqida batafsil soʻz yuritamiz. Sintagma tushunchasi dastlab F.de Sossyur taʼlimotida qoʻllanilganini koʻramiz. Olim birinchilardan boʻlib, assotsiativ (paradigmatik) va sintagmatik munosabatdagi til birliklari haqida fikr bildirgan edi va shu jarayonda sintagma termini ham ilmiy isteʼmolga kiritiladi. F.de Sossyur sintagmani quyidagicha taʼriflaydi: ...nutqda soʻzlar tilning toʻgʻri chiziq boʻylab qoʻllanilishiga asoslangan holda, bir-birlari bilan munosabatga kirishadi. Bunda ular biri ikkinchisidan keyin bogʻlanishli holatda keladi. Aynan ana shu hodisa sintagmani taqozo etadi. Shunday qilib, sintagma har doim kamida ikki birlikning oʻzaro munosabatidan tashkil topadi» F.de Sossyur quyidagi misollarni keltiradi: re-lire «qayta oʻqimogʻ», contre tous foydalangan: <hammaga qarshi>, lavie humaïke «inson hayoti», sil fait beau temps, nous sortirons «Aniglovchi-aniglanmish «Agar havoyaxshi boʻlsa, biz sayrga chiqamiz».

Koʻrinadiki, sintagma bir soʻz bilan, soʻz birikmasi va hatto murakkab sintaktik qurilma bilan ifodalanishi ham mumkin. Ammo mazkur obyektlarning har birida aniglovchi-aniglanmish munosabati oʻz ifodasini topmogi lozim. Bu juda S.O.Karsevskiy hatto ushbu ifodadan sintagma taʼrifini berishda foydalangan Aniqlovchi- aniqlanmish munosabatini sintagma deb atash mumkin» S.O.Karsevskiy sintagmani ichki va tashqi deb ataluvchi ikki turga boʻlib oʻrganishni tavsiya etadi. S.O.Karsevskiyning sintagmaning lingvistik maqomi xususida aytgan mulohazalari ham F.de Sossyur taʼlimotiga asoslanganini koʻramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1996.
2. Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. I-қисм. Фонетика ва фонология. – Тошкент, 1999.
3. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.